



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

BOLALARNI KITOB O'QISHGA QIZIQTIRISHDA INTERFAOL USULLAR (MONTESSORI USLUBIDA)

To'ychiyeva Go'zal Sobir qizi
Oriental Universiteti Samarqand korpusi, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalarni kitob o'qishga jalb etish jarayonida interfaol pedagogik usullardan foydalanish masalasi Montessori pedagogik tizimi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda mustaqil o'rganish, o'yin texnologiyalari, muammoli vaziyatlar yaratish hamda faol muloqotga asoslangan interfaol metodlarning samaradorligi yoritilgan. Montessori uslubi asosida tashkil etilgan o'quv muhitining bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni oshirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, o'qish jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari hamda ularning bolalar tafakkuri, nutqi va tasavvurini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, Montessori pedagogikasi, interfaol metodlar, bolalar ta'limi, o'qishga qiziqish, innovatsion ta'lim.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРЕСА К ЧТЕНИЮ У ДЕТЕЙ (В СТИЛЕ МОНТЕССОРИ)

Туйчиева Гўзал Собир кизи
Университет Oriental, Самаркандский корпус, магистрант

Аннотация

В данной статье анализируется использование интерактивных педагогических методов в процессе привлечения детей к чтению на основе педагогической системы Монтессори. В исследовании освещается эффективность интерактивных методов, основанных на самостоятельном обучении, игровых технологиях, создании проблемных ситуаций и активном общении, в формировании читательской культуры у детей. Научно обосновывается значение образовательной среды, организованной на основе метода Монтессори, в повышении интереса детей к книгам. Кроме того, рассматриваются дидактические возможности интерактивных методов, применяемых в процессе чтения, а также их роль в развитии мышления, речи и воображения детей.

Ключевые слова: чтение, педагогика Монтессори, интерактивные методы, образование детей, интерес к чтению, инновационное образование.

INTERACTIVE METHODS OF FOSTERING CHILDREN'S INTEREST IN READING (IN THE MONTESSORI APPROACH)

To'ychiyeva Go'zal Sobir qizi
Oriental University, Samarkand Campus, Master's Student

Abstract

This article examines the use of interactive teaching methods to encourage children's interest in reading based on the Montessori pedagogical approach. The study highlights the effectiveness of interactive methods such as independent learning, game-based learning, problem-solving activities, and communication-centered techniques in developing children's reading culture. The role of the Montessori educational environment in stimulating children's interest in

books is scientifically analyzed. The article also discusses the didactic potential of interactive reading methods and their influence on the development of children's thinking, speech, and imagination.

Keywords: reading culture, Montessori pedagogy, interactive methods, children's education, motivation to read, innovative teaching.

Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari keng rivojlanayotgan davrda bolalarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish alohida e'tibor talab qiladi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, bolalik davrida shakllangan kitobxonlik odati shaxsning intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi [3, 24].

Pedagogika sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarni kitob o'qishga jalb qilishda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda interfaol o'qitish usullaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Interfaol metodlar o'quv jarayonida bolalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi hamda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi [8, 67].

Shu nuqtai nazardan Montessori pedagogik tizimi bolalarni o'qishga qiziqitirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu pedagogik yondashuv bolalarning tabiiy qiziqishlari va individual rivojlanish xususiyatlariga asoslangan bo'lib, o'quv jarayonida mustaqillik, erkin tanlov hamda faol ishtirokni ta'minlaydi.

Tadqiqotimizning maqsadi – Montessori uslubi asosida interfaol metodlar yordamida bolalarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganishdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan:

1. pedagogik kuzatuv
2. qiyosiy tahlil
3. tajriba-sinov usuli
4. ilmiy manbalarni tahlil qilish

Montessori pedagogikasining asosiy tamoyillari bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish, erkin tanlov imkoniyatini yaratish hamda o'qish jarayonini tabiiy qiziqishlar asosida tashkil etishga qaratilgan [10, 58].

Tadqiqot davomida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida quyidagi interfaol metodlardan foydalanildi:

- rol o'yinlari
- hikoya davom ettirish metodi
- tasviriy muhokama
- kitob asosida dramatzatsiya
- savol-javob va muammoli vaziyatlar

Ushbu metodlar bolalarda nafaqat o'qishga qiziqish uyg'otadi, balki ularning nutq faoliyati, mantiqiy fikrlash va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalarni kitob o'qishga qiziqitirish hamda o'qish madaniyatini shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va didaktika sohalarida keng tadqiq etilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim jarayonida bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu masala ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy hamda amaliy jihatlardan o'rganilgan.

Avvalo, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning nazariy asoslari g'arb pedagogikasida

shakllangan. Mashhur italiyalik pedagog M.Montessori bolalarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan ta'lim tizimini ishlab chiqqan. Olimaning fikriga ko'ra, ta'lim jarayoni bolalarning mustaqil faoliyati, qiziqishi va individual rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda tashkil etilishi lozim. Montessori ta'lim tizimida o'qish jarayoni majburiy faoliyat emas, balki bolaning tabiiy ehtiyojiga asoslangan mustaqil bilish jarayoni sifatida qaraladi [3, 112-118].

Ingliz tilida faoliyat yuritgan pedagog va psixolog J.Bruner ham bolalarning bilish jarayonini faollashtirishda interfaol metodlarning muhimligini ta'kidlaydi. Uning konstruktivistik ta'lim nazariyasiga ko'ra, o'quvchilar bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki faol o'rganish jarayonida uni mustaqil ravishda kashf etadi [2, 56-59]. Bu esa o'qish jarayonida muhokama, drammatizatsiya, rolli o'yinlar kabi metodlardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Amerikalik pedagog D.Kolb o'zining tajribaviy o'qitish nazariyasida bilimni egallash jarayoni amaliy faoliyat orqali yanada samarali kechishini ta'kidlaydi. Kolbning fikricha, o'quvchilar o'qish jarayonida faol ishtirok etgan taqdirdagina o'rganilayotgan materialni chuqurroq anglaydi [6, 38-41]. Shu sababli interfaol metodlar o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Rus pedagogika maktabida ham bolalarda o'qish madaniyatini shakllantirish masalasi keng o'rganilgan. Mashhur rus psixologi L.S.Vygotskiy o'zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bolalarning bilim olish jarayonida ijtimoiy muloqotning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'qish jarayonida muloqot va hamkorlikka asoslangan metodlardan foydalanish bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [13, 90-94].

Shuningdek, rus pedagog olimi V.A.Sukhomlinskiy bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. U o'z tadqiqotlarida kitob bolalar tafakkuri va ma'naviy dunyosini boyituvchi muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi hamda o'qish jarayonini qiziqarli tashkil etish zarurligini ko'rsatadi [12, 145-149].

Zamonaviy rus pedagogikasida interfaol o'qitish metodlari bo'yicha E.S.Polat tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim interfaol ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [9, 67-70].

O'zbek pedagogika ilmda ham bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi alohida e'tibor qaratilgan yo'nalishlardan biridir. Masalan, pedagog olim N.Saidahmedov zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi faolligini oshirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, interfaol metodlar o'quv jarayonini samarali tashkil etishning muhim vositasi hisoblanadi [12, 84-88].

Shuningdek, R.Ishmuhamedov o'z tadqiqotlarida interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5, 73-76].

O'zbek pedagog olimi A.Avloniyning asarlarida ham kitob va mutolaaning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni alohida ta'kidlangan. Avloniy kitobni inson tafakkurini rivojlantiruvchi, ma'naviy dunyosini boyituvchi muhim vosita sifatida baholaydi hamda yoshlarni kitob o'qishga rag'batlantirish zarurligini ta'kidlaydi [1, 45-47].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish masalasi pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli ilmiy maktablar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida o'rganilgan. Montessori pedagogik tizimi hamda interfaol o'qitish metodlari bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida ilmiy jihatdan asoslangan.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Montessori pedagogik tizimi asosida qo'llanilgan interfaol metodlarning bolalarda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni shakllantirish va rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. O'tkazilgan pedagogik kuzatuvlar va tajribalar natijasida

o'quv jarayonida qo'llanilgan metodlarning bolalarning o'qishga bo'lgan munosabati hamda ularning bilish faoliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Kuzatuvlarimiz asosida quyidagi pedagogik natijalar qayd etildi:

1. Interfaol metodlardan foydalanish bolalarning o'quv jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday metodlar o'quvchilarni o'qish jarayoniga faol jalb etib, ularning mustaqil fikrlash va muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Montessori pedagogik muhiti asosida tashkil etilgan o'qish mashg'ulotlari bolalarda mustaqil ravishda kitob tanlash, matn bilan ishlash va o'qilgan materialni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa bolalarning o'qishga nisbatan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

3. O'yin elementlari bilan boyitilgan o'qish jarayoni bolalarning kitobga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'yin texnologiyalari o'quv jarayonini qiziqarli tashkil etishga yordam berib, bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

4. Hikoya muhokamasi, dramatizatsiya hamda rolli o'yinlar kabi metodlardan foydalanish bolalarning nutq faoliyati va kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday faoliyat turlari o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi hamda ularning matn mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Tajriba jarayonida o'quvchilarning aksariyatida kitob o'qishga nisbatan faol qiziqish paydo bo'lgani kuzatildi. O'quvchilar kitob bilan ishlash jarayonida matn mazmunini muhokama qilish, o'z fikrini erkin ifodalash va o'qilgan material asosida turli ijodiy faoliyatlarni amalga oshirishga intilishganligi aniqlandi. Bu esa Montessori uslubi asosida tashkil etilgan interfaol o'qish jarayoni bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Montessori pedagogik tizimi bolalarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish va rivojlantirishda samarali pedagogik model sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu metodika bolalarning tabiiy qiziqishlari, individual ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga tayangan holda tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli o'quv jarayoni majburiy faoliyat shaklida emas, balki bolalar uchun qiziqarli, erkin va ijodiy faoliyatga aylanadi.

Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan o'qish jarayoni bolalarning intellektual va kommunikativ rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bunday metodlar bolalarda quyidagi ko'nikma va kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi:

- mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi;
- ijodiy yondashuv va kreativ tafakkurning shakllanishi;
- nutq madaniyati va og'zaki ifoda ko'nikmalarining rivojlanishi;
- muloqot qilish hamda fikr almashish kompetensiyalarining mustahkamlanishi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar kitob bilan faol ishlash jarayonida matn mazmunini chuqurroq anglay boshlaydi, o'qilgan materialni tahlil qilish va muhokama qilishga qiziqadi. Natijada o'qish jarayoni ular uchun oddiy o'quv faoliyati emas, balki qiziqarli va mazmunli mashg'ulotga aylanadi [11, 84-88].

Shuningdek, Montessori metodikasining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu yondashuvda o'qituvchi an'anaviy ta'lim tizimidagi kabi boshqaruvchi yoki nazoratchi rolini emas, balki yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi. Bunday pedagogik yondashuv bolalarning mustaqil izlanish faoliyatini rag'batlantiradi, ularning bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi hamda o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida Montessori pedagogik tizimi asosida bolalarni kitob o'qishga jalb

etishda interfaol pedagogik usullardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar hamda kuzatuvlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy ta'lim jarayonida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni erta yoshdan shakllantirish bolalarning intellektual rivojlanishi, nutq madaniyati, tafakkuri hamda dunyoqarashining kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Montessori pedagogikasi bolalarni o'qishga qiziqitirishda samarali metodik asoslardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur pedagogik yondashuv bolalarning tabiiy qiziqishlari, mustaqil faoliyati va individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

3. Interfaol pedagogik metodlardan foydalanish bolalarning o'quv jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday metodlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, ularning muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda o'quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

4. O'yin elementlari asosida tashkil etilgan o'qish jarayoni bolalarda kitobga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'yin texnologiyalari orqali bolalar o'qish jarayoniga faol jalb etiladi, bu esa ularning matnni anglash darajasi va qiziqishini oshiradi.

5. Montessori pedagogik muhiti asosida tashkil etilgan o'qish faoliyati bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, tasavvur hamda nutq rivojini shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Bunday muhit bolalarning shaxsiy faolligini qo'llab-quvvatlaydi va ularning bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

Yuqoridagi ilmiy xulosalar shuni ko'rsatadiki, bolalarni kitob o'qishga jalb etish jarayonida Montessori pedagogikasi tamoyillariga asoslangan interfaol o'qitish metodlaridan keng foydalanish pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodlar nafaqat bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga, balki ularning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Bruner J. The Culture of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1996. – 224 p.
3. Davydov V. V. Теория развивающего обучения. – Москва: Интеллект-центр, 1996. – 544 с.
4. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1997.
5. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 240 b.
6. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
7. Montessori M. The Discovery of the Child. – New York: Ballantine Books, 1967. – 339 p.
8. Montessori M. The Montessori Method. – New York: Schocken Books, 2004.
9. Polat E. S. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2001. – 272 с.
10. Qodirova F. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
11. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2003. – 192 b.
12. Sukhomlinskiy V. A. Сердце отдаю детям. – Москва: Педагогика, 1976. – 384 с.
13. Vygotskiy L. S. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – 287 с.